

“KULTEGIN” BITIKTOSHINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O’RGATISH

Q. Ro‘ziyev ¹

Annotatsiya:

Ushbu maqolada “Kultegin” bitiktoshini zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda qanday o‘qitish mumkinli haqida fikrlar yuritilgan. Ushbu bitiktoshni mukammal tadqiq etish bo‘yicha aniq ilova va saytlar taklif qilingan. “Bulm taksonomiyasi” asosida bitiktoshni amaliy darslarda qanday o‘rgatish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: “Kultegin” bitiktoshi, mobil texnologiyalar, bulm taksonomiyasi, sayt, ilova

doi: <https://doi.org/10.2024/khppjx80>

Hozirgi kunda tadqiqot jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o‘quv jarayonida qo‘llashga bo‘lgan qiziqish, e‘tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo‘lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an‘anaviy shakl faqat tayyor bilimlarni o‘rgangan bo‘lsa, zamonaviy texnologiyalar egallayotgan bilimlarini insonlarning o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga o‘rgatmoqda. Bu jarayon shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifasini bajaradi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar o‘rganuvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo‘lishlarini ta‘minlaydi.

Hozirgi kunda iPhonedan tortib, Android gadgetlargacha turmush tarzimizda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Deloitte tadqiqot markazining ma‘lum qilishicha, smartfon foydalanuvchisi kun davomida o‘rtacha 50 marotaba “aqlli telefon”ga nazar solar ekan. Ushbu jarayonni Respublikamizda ham kuzatish mumkin. Chunki hozirgi kunda aholi qatlamining barchasida: yoshi kichiklardan tortib katta yoshgacha bo‘lgan mobil operatorlar foydalanuvchilarida aqlli telefon va planshetlardan foydalanadi. Shu bilan bir qatorda “aqlli” qurilmalaridan tadqiqot ishlarida va masofaviy tadqiqot tizimlarida foydalanish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Ammo Respublikamiz oliy ta‘lim muassaslari talabalarining aqlli qurilmalari uchun milliy tilimizda turli bilim sohalari bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirish imkoniyatlarini beruvchi *dasturlarning kamligi ko‘rishimiz mumkin*. Shuning uchun ham oliy ta‘lim muassasi o‘rganuvchilariga turli fanlar bo‘yicha bilimlarni o‘zlashtirishga yordam beradigan bepul *mobil ilovalarni yaratish* bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri. Oliy ta‘lim muassasalarida «Til tarixi», «Qadimgi turkiy til», «Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi» fanlarini o‘qitishni takomillashtirish, fanni o‘rganishda zamonaviy pedagogik va axborot

¹ Qahramon Kuzimuratovich Ro‘ziyev, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrası o‘qituvchisi

texnologiyalaridan, noan'anaviy va interfaol usullaridan keng foydalanish orqali tadqiqot samaradorligini oshirish ijobiy ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot sohasida mobil ilovalarning qadri o'sib bormoqda bunga sabab esa u beradigan quyidagi qulayliklar:

- Istalgan paytda topshiriq ustida ishlash;
- Fayllar almashish;
- Masofaviy tadqiqot tashkiloti va ota-onalarning o'zaro harakati;
- Mobil tadqiqot vaqtga bog'liq bo'lmasligi;
- O'rganish chegaralarini kengaytirish;

Mobil tadqiqot (M-Learning) - vaqt makondan qat'i nazar, mobil qurilmalar orqali o'rganish imkoniyatidir. Mobil tadqiqot-bu joylashgan o'rindan yoki joylashuvning o'zgarishidan cheklanmay mobil qurilmalar orqali elektron o'qishdir. Shunday qilib, o'quv jarayoni tashkiloti uchun zamon va makondan qat'i nazar, mobil tadqiqot mobil texnologiyani alohida hamda boshqa axborot va aloqa texnologiyalari bilan birgalikda qo'llashni nazarda tutadi.

Mobil texnologiyalar to'xtovsiz keng tarqalib bormoqda. Qurilmalar bozorida bunday qurilmalarning ko'plab turlari namoyish etilgan (Play market). Odatda, mobil qurilmalar deganda cho'ntak kompyuterlari, smartfonlar, planshetlar va mobil telefonlar tushuniladi, lekin odamlar kundalik faoliyatida ishlatuvchi boshqa har qanday ixchamlashtirilgan qurilmalar evaziga bu ro'yxatni kengaytirish mumkin.

Mobil ilovalar odatda *"tarkib bo'yicha yengil"* deb hisoblanadi va ko'proq izlanuvchilarga audiomateriallar yetkazib berishda, matnli xabarlar almashinuvida, so'rovlarda qatnashishda, matnli chatlarda, yozib olish va o'qishda ishlatiladi. Shuningdek, mobil tadqiqot tarkibiga quyidagi talablar qo'yiladi:

Ixchamlilik – mobil tadqiqot tarkibiy qismlari aloqadagi ehtimolli uzilishlarni inobatga olgan holda davomiylik bo'yicha qisqa bo'lishi lozim. Mikroergonomikaning yuqori darajadaliği – kichik ekranda ovoz va rasmlarning kichik hajmda va yuqori sifatli bo'lishi. Fayllarning kichik hajmdaligi yuklab olishning tezligini ta'minlaydi.

Har joydalik – mobil o'rganish tarkibidagi materiallarni joylashgan joyidan qat'i nazar, istalgan joyda olish mumkin. Mobil aloqa va mobil qurilmalar ta'minotchilarining ulkan qamrovi mobil tadqiqot xizmatlaridan har joyda va siz uchun qulay paytda foydalanish imkoniyatini yaratib beradi. Talab bo'yicha foydalanishga ruxsat – tabiatan mobil qurilmalar izlanuvchilar uchun talab bo'yicha zarur paytda o'zining maksimal yetkazib berish imkoniyatini ishga solib zaruriy tarkibdan foydalanishni ta'minlaydi.

Mobil tadqiqot – bu faqatgina nazariy ehtimollik emas, ayni mavjud narsadir. Turli davlatlarda izlanuvchilar, pedagoglar mobil qurilmalar yordamida keng ma'rifiy resurslardan foydalanish imkoniga ega bo'ladi, axborotlarni muhokama qilish va axborotlarni boshqa izlanuvchilar bilan bo'lishishlari mumkin, hamkasblardan va o'qituvchilardan madad olishlari shuningdek, samarali aloqani yo'lga qo'yishlari mumkin.

O'rxun-Enasoy obidalarini xususan, "Kultegin" bitiktoshini o'rganishni elektron tadqiq qilish maqsadida quyidagi mobil ilovalardan foydalanish tavsiya qilinadi:

Turkic bitik

БИТИГ			
			
a/e	i/i	o/u	ö/ü
			
b¹	b²	d¹	d²
			
ġ	g	q	k
			
o/u-q-o/u	ö/ü-k-ö/ü	t¹	t²
			
l¹	l²	n¹	n²
			
r¹	r²	s¹	s²
			
y¹	y²	lq/ql	ç
			
lç/çl	p	m	ñ
			
ÿ	ð	ð	ð

БИТИГ			
Для чтения текста различных частей стеллы, прикоснуться к одному из изображений или кнопок, расположенных ниже.			
	VIII века, Монголия, Орхон долины. Кутьтегин (685–731 лет) комплекс памятников и надписей. На лицевой стороне - 40 строк, на I стороне -15 линий, II сторона - 14 строк.		
КЮЛЬТЕГИН	ЮГ	ВОСТОК	СЕВЕР
	VIII века, Монголия, Орхон долины. Билге каган (683–734 лет) комплекс памятников и надписей. На лицевой стороне - 41 линия, на I стороне -17 линий, II сторона - 15 строк.		
БИЛГЕ КАГАН	ЮГ	ВОСТОК	СЕВЕР
	VIII века, Монголия, Орхон долины. Тоньук (646–732 лет) комплекс памятников и надписей. 62 строк.		
ТОНЬЮКУК			
	VIII века, Монголия, Орхон долины. Elatnish yabgu (? -728 лет) комплекс памятников и надписей. 13 строк.		
ЭЛЬ ЕТМИШ ЯБГУ			

[illegible]

Mazkur dastur O'rxun alifbosi yoki qadimgi turkiy yozuv, ko'kturk yozuvi yoki O'rxun-Enasoy yozuvi, Enasoy yoki Sibir runlari, runik alifbosini xususan, "Kultegin" bitiktoshini targ'ib qilish, matnlarni o'qish hamda o'rganishga qaratilgan. Ilova yordamida bir vaqtda harflarni o'rganish, yozish, shu asosda matnlarni o'qish imkoni mavjud. Uni osonlik bilan o'z smartfoningizga ko'chirib olishingiz hamda turli matnlarni yozishda ishlatishingiz mumkin. Bu dastur 2016-yilda newnomadsdev@gmail.com dasturchilari tomonidan ishlab chiqilgan.

Gökürkçe çeviri

The screenshot shows the 'Göktürkçe Çeviri' (Göktürk Translation) application. At the top, there's a blue header with the app name and a logo. Below the header, there are two tabs: 'Latin' and 'Göktürk'. The 'Latin' tab is currently selected. The main area is divided into two sections. The top section is titled 'Latin' and contains a text input field with the placeholder 'Bir şeyler yaz...' (Write something...). To the right of the input field is a button labeled 'Yapıştır' (Paste). The bottom section is titled 'Göktürk' and contains the text '(Modernleştirilmiş)' (Modernized). Below this, there is a large, empty white space, likely for the translated text.

Biz tomonimizdan qadimgi bitiktoshlar xususan, “Kultegin” bitiktoshini mukammal oʻrganish boʻyicha quyidagi internet saytlar taklif qilinmoqda:

International Conference

HUMANISTIC ROLE OF LANGUAGE AND LITERATURE IN THE CONTEMPORARY GLOBALIZATION


Qozog'iston Respublikasi Madaniyat va axborot vazirligi qoshidagi TURK TIL qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan.

<http://www.tamga.org/2016/01/web-tabanl-gokturkce-cevirici-e.html>

<https://turanotagi.com/gokturkce-ogrenmek/>

KARAKEÇİLİ 2018-yil 1-may kuni ushbu köktürk alifbosini o'rganish va amaliyotga hissa qo'shish maqsadida tayyorlangan.

Shuningdek, "Bulm taksonomiyasi" yordamida "Kultegin" bitiktoshini o'rgatish amaliy darslarda samarali yordam beradi.



Xulosa qilib quyidagilarni tavsiya qilmoqdamiz:

1. Tadqiqot jarayoni va ilmiy tadqiqotlarda qadimgi yozma yodgorliklar matni bilan ishlashni osonlashtirish maqsadida, respublikamizda ham mobil ilovalar ishlab chiqilishi ommalashitirilishi zarur.

2. “Kultegin” bitiktoshi matni bilan ishlashni yanada takomillashtirish maqsadida yaratilgan web-sayt OTM o’rganuvchilarini o’ziga jalb qilishi uchun maxsus elektron darsliklar yaratilishi lozim.

3. Masofaviy tadqiqot tizimini rivojlantirish maqsadida tavsiya etilayotgan turli elektron dasturlarning o’zbekcha varianti ishlab chiqish hamda keng ommaga taqdim qilinishi zarur.

4. Turkiy xalqlarning dastlabki yozuvlari bo’lgan O’rxun-Enasoy obidalari xususan bitiktoshlar ichida alohida o’ringa ega bo’lgan “Kultegin” bitiktoshining o’rganilishiga bo’lgan e’tiborni yanada oshirish darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

[1]. Алламбергенова М.Р. Қадимги ёзма ёдгорликлар луғавий таркибининг тарихий-қийёсий тадқиқи (Ўрхун-Энасой обидалари мисолида). Филол. фан. б. фалс. док. (Phd) дисс. – Ж.: 2022.

[2]. Атамурадов Ж.Ж. Масофавий таълимда мобил иловалардан фойдаланиш. Амалий математика ва ахборот технологияларининг замонавий муаммолари. Анжуман материаллари. - Т.: 2021 йил, 15 апрель.

[3]. Жўрақўзиев Н, Культигин битиктошида олам ҳақидаги тасаввурлар, Ўзбек тили ва адабиёти. № 1, 2012

[4]. Rahmonov N., B.Matboboyev. O’zbekistonning ko’hna turkiy-run yozuvlari. – T.: Fan, 2006.